



ZULFIYAXONIM HAYOTIDAN KICHIK BADIA

(Ushbu sahna ko'rinishi Zulfiyaxonim shogirdi Qutlibeka va "Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar Tojimamatova suhbatiga asoslanadi)

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Muxtorqulova Rushona Zohidjon qizi

email: muxtorqulovarushona@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu sahna ko'rinishi Zulfiyaxonim shogirdi Qutlibeka va "Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar Tojimamatova suhbatiga asoslanadi

Kalit so'zlar: bahor, suhbat, asr.

Boshlovchi: *Bahor avvallaridan kech kuzlargacha Do'rmonda–dala hovlilarida yashardik. Bilasiz, atrof dov-daraxtli, xushhavo joy. Ammo faqat shomdan keyingina aylangani chiqardik. Chunki kunduzi ba'zi yozuvchilarimiz zamonaviy yoz kiyimida yurishardi. "Ular xijolat bo'lishmasin", derdilar. Mana shu gapning o'zidanoq o'zbekona nafas kelib turmayaptimi...*


Hozir sizlar uchun Zulfiyaxonim va ularning shogirdlari o'rtasida bo'lgan suhbatdan kichik lavha namoyish etamiz. (parda ochiladi sahnada Zulfiyaxonim va uning shogirdi suhbat qurayotgan edi)

Shogird:

- Nega boshqalar kabi turmush o'rtog'ingiz haqida ko'proq xotiralaringizni yozib qoldirishga harakat qilmaysiz?

Zulfiya:

- Ular manim, yolg'iz o'zimning boyligim, xotiralarimdir. Bu haqda boshqalarga gapirishga hayo qilaman. "Mening Oybegim", "Chorak asr hamnafas" kitoblari haqida





doim hurmat, havas bilan gapiraman, men ham Hamid Olimjon haqida shunday bir kitob yozishga burchliman.

Shogird:

– Atrofingizda hamisha yosh ijodkorlar bilan gavjum bo‘lgan, deyishadi. Shogirdsevar ustoz bo‘lishingizni sababi nimada deb o‘ylaysiz?

Zulfiya:

- Men hech qachon hech kimni shogirdim, deb ayta olmayman, ularning o‘zlari meni “ustoz”, desa boshqa gap. Menga she’rlaringdagi ijtimoiy ruh yoqdi, aksariyat qizlarimiz muhabbat mavzulari atrofida o‘ralashib qolishadi, shu yo‘nalishda mahkam tur.

(Sahnadan chiqib ketadilar)

Boshlovchi:

- Zulfiyaxonim o‘zi tiynati toza, pokiza, bilimdon, sabr-bardoshli ayol edi, unga bunday nufuzli martabada yurish hech qanday qiyinchilik tug‘dirmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://oz.sputniknews-uz.com/20230227/zulfiya-biografiya-32472048.html>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zulfiya>
3. <https://mmp.tma.uz/2020/07/tibbiy-profilaktika-fakulteti-2-bosqich-203-guruh-talabasi-jo-raboyeva-shohidaning-o-zbek-shoirasi-zulfiyaxonim-hayoti-va-unitilmas-ijodini-zulfiyani-eslab-mavzusi-ostida-yoritilib-berilgan-maqolasi/>

